

CHATGPT VA TIL O'RGANISH: ELEKTRON LUG'ATLARDAN SUN'IY INTELLEKTLI SUHBATDOSHGACHA

O'rozboqov Salohiddin Barot o'g'li

Ilmiy rahbar: Jumayeva Umida Abdurahim qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari, xususan, ChatGPT modellarining xorijiy tillarni o'rganish jarayoniga ta'sirini o'rganadi. Maqolada an'anaviy elektron lug'atlardan interaktiv suhbatdosh tizimlariga o'tish evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqot davomida ChatGPT orqali til o'rganishning qulayliklari, samaradorligi va ba'zi kamchiliklari ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, ChatGPT, til o'rganish, raqamli lingvistika, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), shaxsiylashtirilgan ta'lim.

Abstract. This article examines the impact of artificial intelligence technologies, specifically ChatGPT models, on the process of foreign language acquisition. The study analyzes the evolution from traditional electronic dictionaries to interactive conversational systems. Furthermore, the research provides a scientific justification for the convenience, effectiveness, and certain limitations of language learning through ChatGPT.

Keywords: Artificial intelligence, ChatGPT, language learning, digital linguistics, natural language processing (NLP), personalized education.

Аннотация. В данной статье исследуется влияние технологий искусственного интеллекта, в частности моделей ChatGPT, на процесс изучения иностранных языков. Анализируется эволюция перехода от традиционных электронных словарей к интерактивным разговорным системам. Также в ходе исследования научно обосновываются удобства, эффективность и некоторые недостатки изучения языков с помощью ChatGPT.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, ChatGPT, изучение языков, цифровая лингвистика, обработка естественного языка, персонализированное обучение.

Kirish. Yigirma birinchi asrda texnologik taraqqiyotning eng muhim yutuqlaridan biri bu – Sun'iy Intellekt (AI) hisoblanadi. So'nggi o'n yillikda Sun'iy Intellektning ta'lim tizimiga chuqur kirib kelishi tillarni o'rganish metodikasini tubdan o'zgartirdi. Agar 2000-yillarning boshida asosiy raqamli yordamchi elektron lug'atlar (masalan, ABBYY Lingvo) bo'lgan bo'lsa, bugun biz "Generativ sun'iy intellekt" (Generative AI) davriga qadam qo'ydik. ChatGPT (Chat Generative Pre-trained Transformer) kabi yirik til modellari paydo bo'lishi bilan til o'rganish jarayoni statik ma'lumot qidirishdan dinamik, jonli muloqotga aylandi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – til o'rganish jarayonida ChatGPT va shunga o'xshash sun'iy intellekt vositalarining tutgan o'rnini, ularning an'anaviy vositalardan (masalan, elektron lug'atlardan) farqini va ta'lim oluvchilarga taqdim etadigan imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilishdir.

Asosiy qism. 1. Evolyutsiya: elektron lug'atlardan sun'iy intellektgacha. Elektron lug'atlar va Google Translate kabi tarjimon tizimlari muloqotning faqat bir tomonlama (so'z yoki ibora darajasidagi) muammolarini hal qilar edi. Vaqt o'tishi bilan Mashinali Tarjima (Machine Translation - MT) va Neyron Mashinali Tarjima (Neural Machine Translation - NMT) texnologiyalari rivojlandi. Bu esa matnlarni butunligicha tarjima qilish imkonini berdi. Biroq, ular tilning kontekstini, uslubiy nozikliklarini va madaniy

qatlamlarini to'liq his qila olmasdi. Noam Chomsky kabi lingvistlar ta'kidlaganidek: "Til – bu shunchaki so'zlar yig'indisi emas, balki murakkab kognitiv jarayondir". ChatGPT aynan shu kognitiv bo'shliqni to'ldirishga harakat qiladi. Elektron lug'atdan farqli o'laroq, ChatGPT foydalanuvchi bilan ma'lum bir kontekst doirasida muloqot qilishi, savollarga javob berishi, xatolarni tushuntirishi va haqiqiy suhbatdosh kabi javob qaytarishi mumkin.

2. Chatgptning til o'rganishdagi afzalliklari: xChatGPT til o'rganuvchilar uchun quyidagi asosiy vazifalarni bajaradigan universal yordamchiga aylandi: 1. Interaktiv suhbat va simulyatsiya (Role-play). Til o'rganishdagi eng katta to'siqlardan biri bu yetarli amaliyotning yo'qligidir. Chet elda yashamaydigan talabalar uchun ona tilida so'zlashuvchi (native speaker) suhbatdosh topish doim muammo bo'lgan. ChatGPT bu bo'shliqni to'ldiradi. Foydalanuvchilar sun'iy intellektga turli xil rollarni berishi mumkin (masalan, "Tasavvur qil, sen Londondagi aeroport xodimisan, men esa sayohatchiman"). Bu orqali talaba istalgan mavzuda, real vaqt rejimida suhbat qurish imkoniyatiga ega bo'ladi. 2. Shaxsiylashtirilgan o'quv dasturlari. Har bir talabaning o'zlashtirish tezligi, maqsadlari (masalan, IELTS topshirish, sayohat qilish yoki tibiiy ingliz tilini o'rganish) va darajasi turlicha bo'ladi. ChatGPT orqali talabalar o'zlari uchun maxsus shaxsiylashtirilgan o'quv rejasini tuzib olishlari mumkin. Benny Lewis (mashhur poliglotti) fikricha: "Til o'rganishning eng samarali yo'li — bu "input" (ma'lumot olish) emas, balki "output" (muloqot qilish) dir". ChatGPT aynan shu "output" muhitini virtual yaratib beradi.

3. Ilmiy taraflar va tadqiqotlar: Stiven Krashen o'zining "Ikkinchi tilni o'zlashtirish" nazariyasida "Affektiv filtr gipotezasi"ni (Affective Filter Hypothesis) ilgari surgan. Unga ko'ra, talabaning til o'rganishiga qo'rquv, xavotir, uyat yoki o'ziga ishonchsizlik kabi psixologik omillar to'sqinlik qiladi. Ko'pchilik o'rganuvchilar boshqa insonlar oldida xato qilishdan, noto'g'ri talaffuz qilishdan tortinib, umuman gapirmaslikni ma'qul ko'radilar. Bu psixologik to'siq "til to'sig'i" (language barrier) deb ataladi. ChatGPT kabi sun'iy intellekt bilan suhbatlashish aynan shu affektiv filtrni pasaytiradi. ChatGPT foydalanuvchini xatolari uchun baholamaydi, hukm qilmaydi va charchamaydi. Natijada talaba erkinroq, qo'rqmasdan eksperiment qiladi va bu jarayon kognitiv erkinlikni ta'minlaydi. 4. Mavjud xatarlar va cheklovlar: Ijobiy jihatlari qaramay, ChatGPT'dan foydalanishda ma'lum xatarlar mavjud: Birinchidan, "Gallyutsinatsiya" (Hallucination) effekti. AI ba'zan mavjud bo'lmagan grammatik qoidalarni yoki so'zlarni to'qib chiqarishi mumkin. Shu sababli, foydalanuvchidan ma'lum darajada tanqidiy fikrlash talab etiladi. Ikkinchidan, hissiy intellektning yo'qligi. Til nafaqat mantiq, balki hissiyot va madaniyatdir. AI so'zlarning chuqur madaniy qatlamlarini (idiomalar, sarkazm) ba'zan noto'g'ri talqin qilishi mumkin. AI buni ma'lum darajada taqlid qilishi mumkin, lekin to'liq insonni o'rnini bosa olmaydi. Uchinchidan, plagiat va dangasalik xavfi. Talabalar matnlarni yozishda o'z mehnatlaridan emas, balki to'g'ridan-to'g'ri ChatGPT mahsulotlaridan foydalanishga odatlanib qolishlari ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt, ayniqsa, ChatGPT til o'rganishni ancha oson va qulay qilib qo'ydi. Oldin faqat lug'atlardan foydalangan bo'lsak, endi esa tilni mashq qilish uchun biz bilan gaplasha oladigan yordamchiga egamiz. Bu esa o'rganishni tezlashtiradi va qo'rqmasdan mashq qilishga yordam beradi. Lekin baribir u o'qituvchining o'rnini to'liq bosa olmaydi. Chunki haqiqiy inson bilan muloqot qilish va ustozning yo'l-yo'riqlari o'rganuvchining lisoniy kompetensiyalarini oshirishda va

uning muloqotda to'laqonli erkin bo'lishida juda muhim. Eng yaxshi yo'l — AI va ta'lim integratsiyasi: ham o'qituvchi, ham sun'iy intellekt.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chomsky, N. (2023). The False Promise of ChatGPT. The New York Times.
2. Crystal, D. (2001). Language and the Internet. Cambridge University Press.
3. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
4. Lewis, B. (2014). Fluent in 3 Months: How Anyone at Any Age Can Learn to Speak Any Language from Anywhere in the World. HarperOne.
5. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). How Languages are Learned. Oxford University Press.
6. Reinders, H. (2023). Artificial Intelligence in Language Education: Risks and Opportunities. RELC Journal.
7. Yunusova, G. (2024). Raqamli lingvistik va ta'lim texnologiyalari. Toshkent: O'qituvchi.